



UO'K: 94(575.1)

Yaminxon ASKARXODJAYEV,
Olmalik davlat texnika instituti, o'qituvchi
E-mail: muhammedovaminhon@gmail.com

TIFT universiteti, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasida dotsenti, t.f.n. B. X. Maxmudov taqrizi asosida

1930-YILLAR BOSHLARIDA O'ZBEKISTON SSRDA TA'LIM TIZIMINING "AGRONOMIYALASHUVI" VA BOSHLANG'ICH MAKTAB PROGRAMMALARI TAHLILI (1931-YILGI "MAORIF VA O'QUTUCHI" JURNALI MATERIALLARI ASOSIDA)

Аннотация

Mazkur maqolada 1930-yillarning boshlarida O'zbekiston SSRda sovet hokimiyati tomonidan boshlang'ich ta'lim tizimining iqtisodiy-mafkuraviy maqsadlarga bo'sundirilishi jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida 1931-yilda e'lon qilingan "O'zbekistonning kolxoz-qishloq boshlang'ich maktablarining birinchi o'quv yili programmalari" va P. Serbovning metodik ko'rsatmalari olingan. Maqolada maktab o'quvchilarining bolalar mehnati orqali paxta yakkahokimligi siyosatiga safarbar etilishi va ta'limning siyosiylashuvi masalalari manbashunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Maorif va o'qutuchi, sovet ta'limi, bolalar mehnati, politexnizatsiya, paxta yakkahokimligi, sinfiy kurash, agronomiyalashuv, manbashunoslik.

АНАЛИЗ «АГРОНОМИЗАЦИИ» СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОГРАММ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ В УЗБЕКСКОЙ ССР В НАЧАЛЕ 1930-Х ГОДОВ (НА ОСНОВЕ МАТЕРИАЛОВ ЖУРНАЛА «МАОРИФ ВА УКИТУВЧИ» ЗА 1931 ГОД)

Аннотация

В данной статье на основе первоисточников анализируется процесс радикальной трансформации системы начального образования в Узбекской ССР в начале 1930-х годов и её превращение в идеологический и экономический инструмент тоталитарного государства. Объектом исследования являются официальные государственные программы для начальных школ колхозов и директивные статьи того времени. В работе раскрываются механизмы мобилизации школьников на принудительный труд в хлопководстве и воспитания в духе «классовой ненависти».

Ключевые слова: Маориф ва уқитувчи, советское образование, детский труд, политехнизация, хлопковая монокультура, классовая борьба, источниковедение.

ANALYSIS OF THE "AGRONOMIZATION" OF THE EDUCATION SYSTEM AND PRIMARY SCHOOL CURRICULA IN THE UZBEK SSR IN THE EARLY 1930S. (BASED ON MATERIALS FROM THE 1931 JOURNAL "MAORIF VA O'QUTUCHI")

Annotation

This article analyzes the radical transformation of the primary education system in the Uzbek SSR during the early 1930s and its conversion into an ideological and economic tool for the totalitarian state, based on primary sources. The study focuses on official state curricula for collective farm primary schools and directive articles of the period. The research highlights the mechanisms used to mobilize schoolchildren for forced labor in cotton production and their indoctrination with the concept of "class struggle".

Key words: Maorif va o'qutuchi, Soviet education, child labor, polytechnization, cotton monopoly, class struggle, source studies.

Kirish. 1930-yillarning boshlari O'zbekiston SSR tarixida "buyuk burilish" davri sifatida nafaqat iqtisodiyotda, balki xalq maorifi tizimida ham chuqur o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Bu davrda maorif tizimi o'zining klassik ma'rifatparvarlik funksiyasidan voz kechib, sotsialistik qurilishning bevosita ishlab chiqarish bo'g'iniga aylantirildi. Mazkur jarayonlarni xolis tadqiq etishda davriy matbuot materiallari, xususan, "Maorif va o'qutuchi" jurnali eng muhim birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. 1931-yilda tasdiqlangan boshlang'ich maktab o'quv dasturlari va metodik ko'rsatmalarini tahlil qilish orqali, sovet hukumatining ta'lim tizimidan "tekin ishchi kuchi" tayyorlash va yosh avlodni mafkuraviy asoratga solish mexanizmlarini manbashunoslik nuqtai nazaridan ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar va manbalar tahlili. O'zbekistonda 1930-yillardagi ta'lim tizimi o'zgarishlari va uning jamiyatga ta'siri masalasi tarixshunoslikda turli siyosiy va mafkuraviy davrlarda turlicha o'rganilgan. Mavzuga oid adabiyotlar va

manbalarni shartli ravishda uchta yirik guruhga ajratib tahlil qilish mumkin:

Sovet davri tarixshunosligi: Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlarda hukmron mafkura ta'sirida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar faqat ijobiy nuqtai nazardan yoritilgan. Xususan, S. Rajabov va M. Qori-Niyoziy kabi sovet davri olimlarining asarlarida qishloq maktablaridagi jarayonlar asosan "savodsizlikni tugatish" va "madaniy inqilob" g'alabasi sifatida biryozlama talqin qilingan. Ularning tadqiqotlarida maktablarning siyosiylashuvi va bolalar mehnati ekspluatatsiyasi kabi masalalar ochiq aytilmagan.

Mustaqillik davri tarixshunosligi: O'zbekiston mustaqillikka erishgach, sovet davri tarixini xolis o'rganish imkoniyati yaratildi. R. Shamsutdinov, S. Inoyatov va boshqa vatanimiz olimlari tomonidan qishloq xojaligini kollektivlashtirishning fojiali oqibatlarini doirasida ta'lim sohasidagi majburlov jarayonlari ham xolis o'rganildi. Biroq, ushbu tadqiqotlarda ko'proq umumtarixiy jarayonlarga e'tibor qaratilgan bo'lib, aynan 1930-yillar boshidagi o'quv

dasturlarining (programmalarining) ichki matni hamda bolalar mehnatining huquqiy-metodik asoslari manbashunoslik nuqtai nazaridan maxsus va chuqur tahlil qilinmagan.

Birlamchi tarixiy manbalar: Yuqoridagi ilmiy bo'shliqni to'ldirishda davriy matbuot materiallari eng muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, 1931-yilda nashr etilgan "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 5-6 qo'shma soni masalani ichkaridan yorituvchi noyob manbadir. Ushbu jurnalda chop etilgan O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligining (XMK) "O'zbekistonning kolxoz-qishloq boshlang'ich maktablarining birinchi o'quv yili programmalari" nomli rasmiy o'quv-metodik hujjati shular jumlasidandir. Shuningdek, P. Serbovning mazkur nashrdagi e'lon qilingan maqola va metodik ko'rsatmalari ("Ommaviy kolxoz-qishloq maktablarini politexnikalashtirish yo'llari") maktab o'quvchilarining paxtachilikka qanday safarbar etilganini ko'rsatib beruvchi bevosita daliliy manba hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mavzu doirasida umumiy tarixiy tadqiqotlar mavjud bo'lishiga qaramay, boshlang'ich maktab programmalari va darsliklarining o'zini bevosita diskurs-tahlil usulida o'rganish bugungi kun manbashunosligining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi (tarixshunosligi). O'zbekistonda 1930-yillar ta'lim tizimi mavzusi sovet davri tarixshunosligida (masalan, S. Rajabov, M. Qori-Niyoziy asarlarida) asosan ijobiy tomondan - "savodsizlikni tugatish" va "madaniy inqilob" g'alabasi sifatida biryoqlama talqin qilingan. Mustaqillik yillarida esa R. Shamsutdinov, S. Inoyatov va boshqa olimlar tomonidan kollektivlashtirishning fojiali oqibatlar doirasida bu jarayonlar xolis o'rganildi. Biroq, aynan 1930-yillar boshidagi o'quv dasturlarining (programmalarining) ichki matni va undagi bolalar mehnatining huquqiy-metodik asoslari manbashunoslik nuqtai nazaridan hali yetarlicha chuqur tahlil qilinmagan. Ushbu maqola ayni shu bo'shliqni arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari asosida to'ldirishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlashda tarixiy izchillik, xolislik (obyektivlik) va qiyosiy-mantiqiy tahlil tamoyillariga tayanildi. Birlamchi manbalarni o'rganishda manbashunoslikning diskurs-tahlil usullaridan foydalanildi. Xususan, 1931-yilgi o'quv dasturlari sotsialistik mafkura va davrning iqtisodiy ehtiyojlari kontekstida qiyosiy o'rganildi.

Pedagogika o'rnida "Sinfiy kurash" va nafrat mafkurasi. Maktabning "agronomiyalashuvidan" ko'zlangan yana bir yashirin maqsad mafkuraviy hisoblanadi. Sovet davlati yosh avlodni ongli ravishda faqatgina "ishchi" emas, balki "jangchi" sifatida tarbiyalashni maqsad qildi. P. Serbov ta'kidlaganidek, politexnizatsiya yoshlarning diqqatini "qishloqdagi sinfiy kurashning keskinlashgan uchastkalariga" yo'naltirish uchun vosita edi. Bolalar faqatgina iqtisodiy mehnatga emas, balki sotsialistik tuzum dushmanlariga (quloqlar, dindorlar, burjuaziya) nisbatan nafrat ruhida tarbiyalangan.

Bu diskurs yosh bolalar psixologiyasiga agressiv tarzda singdirildi. Masalan, davlat dasturidagi "1-May kunini o'tkazishda ishtirok qilaylik" mavzusi doirasida o'qituvchilarga shunday uqtiriladi: "Boshqa mamlakatlarda ishchi va dehqonlarning qulluqda bo'lganlarini ko'rsating... rabochilarning xizmat haqi past... ochlik, rabochi va dehqon bolalarining kuchidan foydalanishlari ko'rsatiladi"[3]. Shunday qilib, atigi 7-8 yoshli bolalarga butun xorijiy dunyo kapitalistlar tomonidan boshqariladigan jahannam sifatida tasvirlangan. Dars jarayonida joriy etilgan "loyiha metodi" bolani individual fikrlashdan mahrum etib, uni kollektiv brigada tarkibida "sotsial qurilish" va "sinfiy kurash" ishtirokchisiga aylantirgan.

Asosiy qism. Sovet hokimiyati qishloq maktablarini an'anaviy ma'rifat dargohidan paxtachilik va kolxozlashtirishga xizmat qiladigan "agronomiyalashgan" obyektga aylantirdi. "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1931-yilgi 5-6 qo'shma sonida chop etilgan O'zbekiston Xalq Maorifi Komissarligi (XMK) metod sektorlaridan material - "O'zbekistonning kolxoz-qishloq boshlang'ich maktablarining birinchi o'quv yili programmalari" nomli o'quv-metodik hujjat bu jarayonning bevosita isbotidir.

Maktablarning "agronomiyalashuvi" va paxta yakkahokimligi. 1930-yillarda ta'limning mutlaq iqtisodiy qaramligi qonuniylashtirildi. P. Serbov o'zining jurnaldagi maqolasida ta'limni insonparvarlik maqsadlaridan ajratib, uni bevosita paxta siyosatiga bo'ysundiradi. Uning yozishicha, "Paxta mustaqilligi, paxta besh yilligini bajaruv... mamlakatimiz oldida turadigan vazifalar keng ishchilar va kolxozchilar ommasining texnika va fanni egallashga keskin ravishda safarbarlik qilishni talab qiladi" [1].

Maktablar majburiy tarzda kolxozlar bilan shartnoma (muahada) tuzishi va bolalar o'sha kolxozning bevosita ishlab chiqarish mehnatida qatnashishlari shart qilib qo'yilgan edi [2]. Bu siyosat - davlat yosh bolalarni oilasi nazoratidan maktab orqali kolxoz nazoratiga o'tkazganining huquqiy ifodasi edi.

Bolalar mehnatining to'liq legallashtirilishi. Boshlang'ich sinf o'quv dasturida o'qish va yozishga oid talablar emas, balki qishloq xo'jaligi qurollarini o'rganishga urg'u berilgan. 1-sinf o'quvchilaridan "pushtalar va gulzorlarni ishlaganda kurak, ketmon, xaskash bilan foydalana biluv, paxta... ko'chatlarini o'tqaza biluv" [3] talab etilgan.

P. Serbov ham maktab o'quvchilari "paxtachilikda, bog'chachilikda, hayvon asrovchilikda" va hatto "qo'shchilik" kabi og'ir ishlarda qatnashishlari mumkinligini ta'kidlaydi [4]. O'quv yili yakunlanganidan so'ng, bolalarni erkin qo'yish o'rniga, ularni "rabochi brigadalar"ga bo'lib, pichan va beda o'rish kabi yozgi ishlarga, traktor hamda boshqa qishloq xo'jaligi mashinalari bilan ishlashga safarbar etganlar [5]. Bu holat o'quvchilar qo'lga bevosita ketmon tutqazilib, paxta dalalariga bepul mardikor sifatida haydalganini isbotlovchi davlat hujjatidir.

"Sinfiy kurash" va nafrat pedagogikasi. Maktabning "agronomiyalashuvidan" ko'zlangan yana bir yashirin maqsad mafkuraviy hisoblanadi. P. Serbov ta'kidlaganidek, politexnizatsiya yoshlarning diqqatini "qishloqdagi sinfiy kurashning keskinlashgan uchastkalariga" yo'naltirish uchun vosita edi [6].

Bolalar faqatgina iqtisodiy mehnatga emas, balki sotsialistik tuzum dushmanlariga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalangan. Masalan, davlat dasturidagi "1-May kunini o'tkazishda ishtirok qilaylik" mavzusi doirasida o'qituvchilarga shunday uqtiriladi: "Boshqa mamlakatlarda ishchi va dehqonlarning qulluqda bo'lganlarini ko'rsating... rabochilarning xizmat haqi past... ochlik, rabochi va dehqon bolalarining kuchidan foydalanishlari ko'rsatiladi" [7].

Shunday qilib, atigi 7-8 yoshli bolalarga butun xorijiy dunyo kapitalistlar tomonidan boshqariladigan jahannam sifatida tasvirlangan. Dars jarayonida joriy etilgan "loyiha metodi" bolani individual fikrlashdan mahrum etib, uni kollektiv brigada tarkibida "sotsial qurilish" va "sinfiy kurash" ishtirokchisiga aylantirgan. O'quv yili oxirida esa o'qituvchi o'z hisobotida bolaning akademik bilimi bilan emas, uning jamoat va yozgi ishlardagi faolligi bilan davlat oldida hisob bergan [8, B. 44].

Olingan natijalar sovet ta'lim tizimining qora sahifalarini ochib beradi. Rossiya va Ukrainada "politexnizatsiya" jarayoni ko'proq zavod va fabrikalarga, sanoatlashuvga yo'naltirilgan bo'lsa, O'zbekistondagi spetsifika sof ko'rinishdagi agrar, xususan, "paxta

yakkahokimligi”ga qaratildi. 1920-yillardagi ilg’or pedagogik atamalar, masalan “loyiha metodi”, “amaliy ta’lim” kabi jozibador soʻzlar orqasida 1930-yillarda butun bir avlodning bolaligi dalalarda yoʻq qilinishi huquqiy jihatdan niqoblangan.

Ushbu amaliyotning uzoq muddatli salbiy oqibatlari juda chuqur edi. Birinchidan, xalqning intellektual salohiyati (inson kapitali) rivojlanishdan toʻxtatildi, chunki akademik ta’lim oʻrnini jismoniy mehnat egalladi. Ikkinchidan, qishloq maktablarida oʻqitish sifatining keskin tushib ketishi, kelajakda Oʻzbekistonning milliy ziyolilari va texnik kadrlarini yetishib chiqishini sunʼiy ravishda sekinlashtirdi.

Maktab programmalari va darsliklarining oʻzini bevosita diskurs-tahlil usulida oʻrganish shuni koʻrsatadiki, sovet pedagogikasi nafaqat psixologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy jinoyatlarni - yosh bolalarni davlat darajasida quldek ishlatishni “qonuniy va sharafli burch” darajasiga koʻtargan. Ushbu holat hozirgi kun manbashunosligining dolzarb vazifalaridan biri boʻlib qolmoqda.

Xulosa. Tahlillar shuni qatʼiy koʻrsatadiki, 1931-yilgi oʻquv dasturlari va metodik maqolalar sovet hokimiyatining oʻzbek yoshlariga nisbatan yuritgan pragmatik va utilitar siyosatining ochiq mahsulidir. Maktablar “politexnikalashtirish” va “agronomiyalashuv” shiori ostida paxta yakkahokimligining ashyoviy bazasiga, oʻquvchilar esa sotsialistik qurilishning tekin ishchi kuchiga aylantirilgan.

Mazkur dasturlar milliy maorifni “siyosiy qurol”ga aylantirishning ilk va eng kuchli qadami boʻlganligi bilan ham tarixiy-manbashunoslik ahamiyatiga ega. Oʻsha davr hujjatlarini oʻrganish tarixchi olimlarimizga nafaqat ta’lim evolyutsiyasini tushunish, balki totalitar tuzumlarning jamiyat eng zaif qatlami hisoblangan bolalar huquqlarini qanday qilib ommaviy tarzda toptaganini ilmiy-daliliy asoslash imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur “agronomiyalashgan” ta’lim modelining aynan oʻrta va oliy ta’lim tizimiga qanday transformatsiya qilinganini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Serbov P. Ammavbu kolxoz-quşlaq maktəblərini politexnikələştiriş jollaro (Ommaviy kolxoz-qishloq maktablarini politexnikalashtirish yoʻllari) // Maorif va oqutucʻ. – Toshkent, 1931. – № 5-6. – B. 6.
2. Oʻsha manba. – B. 10.
3. Oz. X. M. K. metod sektornyn materijals. Ozbekistannin kolxoz quşlaq başlanojc maktəblərini birinci oquv jil programmalari (Oʻzbekistonning kolxoz qishloq boshlangʻich maktablarining birinchi oʻquv yili programmalari) // Maorif va oqutucʻ. – Toshkent, 1931. – № 5-6. – B. 41.
4. Serbov P. Ammavbu kolxoz-quşlaq maktəblərini politexnikələştiriş jollaro // Maorif va oqutucʻ. – Toshkent, 1931. – № 5-6. – B. 11.
5. Ozbekistannin kolxoz quşlaq başlanojc maktəblərini birinci oquv jil programmalari // Maorif va oqutucʻ. – Toshkent, 1931. – № 5-6. – B. 44.
6. Serbov P. Ammavbu kolxoz-quşlaq maktəblərini politexnikələştiriş jollaro // Maorif va oqutucʻ. – Toshkent, 1931. – № 5-6. – B. 7.
7. Ozbekistannin kolxoz quşlaq başlanojc maktəblərini birinci oquv jil programmalari // Maorif va oqutucʻ. – Toshkent, 1931. – № 5-6. – B. 43.
8. Oʻsha manba. – B. 44.